



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)


2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	196
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
Allamurodov Elyor Tursun ugli	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
Dilrabo Jumanova	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar	227
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar	232
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	

MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL USULLARNING MAZMUNI, TURLARI VA FUNKSIONAL AHAMIYATI

Safarova Soliha Ilhomovna

Buxoro davlat pedagogika instituti
ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda metodikasi (maktabgacha ta'lim)
yo'nalishi magistranti

ORCID: 0009-0001-6678-2792

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, asosiy turlari va funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Interfaol metodlarning bolalarda erkin fikrlash, nutqiy faollik, muammo yechish, hamkorlik, mustaqil xulosa chiqarish va ijodiy yondashuvni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, aqliy hujum, savol-javob, rolli va didaktik o'yinlar, muammoli vaziyat, kichik guruhlarda ishlash, rasmi klaster hamda mini-STEAM topshiriqlarining maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta'siri asoslanadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, interfaol usullar, erkin fikrlash, bola faolligi, didaktik o'yin, rolli o'yin, muammoli vaziyat, hamkorlik, nutqiy rivojlanish.

Abstract: This article examines the content, main types, and functional significance of interactive methods in preschool education. It highlights the role of interactive methods in developing children's free thinking, speech activity, problem-solving skills, cooperation, independent reasoning, and creative approach. The article also discusses the educational value of brainstorming, question-and-answer activities, role-playing and didactic games, problem situations, small-group work, visual clustering, and mini-STEAM tasks in the development of preschool children.

Key words: preschool education, interactive methods, free thinking, child activity, didactic game, role-playing game, problem situation, cooperation, speech development.

Аннотация: В статье рассматриваются содержание, основные виды и функциональное значение интерактивных методов в дошкольном образовательном процессе. Раскрывается роль интерактивных методов в развитии свободного мышления, речевой активности, умения решать проблемные ситуации, сотрудничества, самостоятельного вывода и творческого подхода у детей дошкольного возраста. Особое внимание уделяется таким методам, как мозговой штурм, вопросно-ответная беседа, ролевые и дидактические игры, проблемные ситуации, работа в малых группах, визуальный кластер и мини-STEAM-задания.

Ключевые слова: дошкольное образование, интерактивные методы, свободное мышление, активность ребёнка, дидактическая игра, ролевая игра, проблемная ситуация, сотрудничество, речевое развитие.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim bolaning intellektual, nutqiy, ijtimoiy-emotsional va ijodiy rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Chunki xalqaro tadqiqotlarda inson miyasi tuzilmasining qariyb 90 foizi 5 yoshgacha shakllanishi qayd etiladi; demak, aynan maktabgacha davrda bolaning fikrlash, muloqot qilish, savol berish, muammo yechish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalariga asos solinadi. Shu sababli maktabgacha ta'limda faqat bilim berish emas, balki bolani faol fikrlashga, izlanishga, o'z fikrini erkin ifodalashga va tengdoshlari bilan hamkorlikda harakat qilishga yo'naltirish muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini kengaytirish bo'yicha sezilarli natijalarga erishildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda maktabgacha ta'lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgan, 2026-yil holatida esa qamrovni 80 foizga yetkazish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda muammo saqlanib qolmoqda: 39 ta tuman va shaharda bog'cha qamrovi 70 foizdan past darajada qolayotgani ta'kidlangan. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 3–6 yoshli bolalarning maktabgacha ta'limga jalb etilishi 2016-yildagi 20 foizdan 2025-yilda 69 foizgacha, boshlang'ich ta'limdan bir yil oldingi tayyorlikdagi ishtirok esa 2016-yildagi 28 foizdan 2024-yilda 84 foizgacha oshgan.



Biroq qamrovning ortishi maktabgacha ta'lim mazmuni va metodikasiga qo'yiladigan talablarni ham kuchaytiradi. Bugungi sharoitda mashg'ulotlarni an'anaviy tushuntirish, yod oldirish va tayyor javobga yo'naltirish asosida tashkil etish bolalarning tabiiy qiziqishi, ijodiy tasavvuri va erkin fikrlash ehtiyojini to'liq qondira olmaydi. Ayniqsa, 3–7 yoshli bolalar bilimni mavhum nazariya orqali emas, balki o'yin, suhbat, kuzatish, tajriba, obrazli tasavvur, savol-javob va amaliy harakat orqali o'zlashtiradi. Shu jihatdan interfaol usullar maktabgacha ta'lim jarayonida bolaning faolligini oshiruvchi, uni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiruvchi, mustaqil fikrlash va muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, ularning asosiy turlari hamda funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, aqliy hujum, savol-javob, rasmi klaster, didaktik va rolli o'yinlar, muammoli vaziyat, kichik guruhlarda ishlash, mini-STEAM topshiriqlari kabi metodlarning bolalarda erkin fikrlash, nutqiy faollik, hamkorlik, muammo yechish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Maqolaning ilmiy ahamiyati shundaki, unda interfaol usullar oddiy metodik texnika sifatida emas, balki maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy, intellektual va kommunikativ rivojlanishini ta'minlovchi ko'p funksiyali pedagogik mexanizm sifatida asoslanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, interfaol usullar zamonaviy pedagogikada ta'lim jarayonini o'qituvchi markazidan bola markaziga ko'chiruvchi, o'quv faoliyatini jonlantiruvchi va bilimni tayyor shaklda berishdan ko'ra uni birgalikda kashf etishga yo'naltiruvchi metodlar tizimi sifatida talqin qilinadi. "Interfaol" atamasi mazmunan "o'zaro ta'sirga asoslangan faollik"ni anglatadi. Demak, interfaol usulning markazida bir tomonlama ta'sir emas, balki tarbiyachi va bola, bola va bola, bola va ta'limiy muhit o'rtasidagi jonli muloqot, fikr almashuv, hamkorlik va izlanish jarayoni turadi. Mazkur yondashuvda bola passiv tinglovchi emas, balki mashg'ulotning faol ishtirokchisi, savol beruvchi, taxmin qiluvchi, muammo yechuvchi va xulosa chiqaruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda interfaol usullarning mohiyati bir necha nazariy asoslar bilan izohlanadi. J. Dewey ta'limni tajriba orqali o'rganish jarayoni sifatida tushuntirib, bilimning haqiqiy o'zlashtirilishi faol amaliyot, kuzatish va muammoni hal qilish orqali ro'y berishini ta'kidlaydi. L.S. Vigotskiy esa bolalar tafakkurining rivojlanishini muloqot, hamkorlik va ijtimoiy tajriba bilan bog'lab, "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi orqali bolaning intellektual o'sishi boshqalar bilan o'zaro ta'sirda kechishini asoslab beradi.


D. Johnson va R. Johnson hamkorlikdagi o'qitishning, R. Slavin esa kooperativ faoliyatning o'quv natijalariga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Mahalliy pedagogik adabiyotlarda N. Sayidahmedov, E. Azizxo'jayeva, Sh. Mardonov kabi olimlar interfaol metodlarni ta'lim jarayonini faollashtiruvchi, o'quvchini mustaqil fikrlashga undovchi va pedagogik samaradorlikni oshiruvchi yondashuv sifatida baholaydilar. Ushbu nazariy qarashlar interfaol usullarning oddiy tashkiliy texnika emas, balki shaxs rivojiga xizmat qiluvchi konseptual pedagogik hodisa ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot mavzusining o'zida ham interfaol usullar erkin fikrlashni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida talqin etiladi. Interfaol usullarni an'anaviy metodlardan ajratib turuvchi asosiy belgi – ta'lim jarayonining biryozlama emas, ko'p tomonlama tashkil etilishidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

An'anaviy modelda pedagog ko'proq axborot beruvchi, bola esa tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi va takrorlovchi rolni bajaradi. Bunday jarayonda "to'g'ri javobni aytish" ustuvor bo'lib, mustaqil fikr yuritish imkoniyati cheklanishi mumkin. Interfaol yondashuvda esa asosiy e'tibor bolaning o'ylashi, savol qo'yishi, o'z nuqtai nazarini ifodalashi, boshqa bolalarning fikrini eshitishi va o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishiga qaratiladi. Bu yerda natijadan ko'ra jarayon muhimroq: bola qanday fikrladi, qanday asos keltirdi, qanday yo'l bilan xulosa chiqardi, nimani kuzatdi, nimani sezdi va qanday bog'lanish hosil qildi – ana shu jihatlar interfaol metodning haqiqiy mazmunini ochib beradi. Shu bois interfaol usullar reproduktiv emas, balki rivojlantiruvchi xarakterga ega.

Maktabgacha ta'limda interfaol usullarning mazmuni ayniqsa chuqur ahamiyat kasb etadi, chunki bu yoshda bola bilimni mavhum tushunchalar orqali emas, balki amaliy harakat, o'yin, obraz, taqlid, suhbat va hissiy tajriba orqali o'zlashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bola uchun "o'rganish" jarayoni ko'pincha "o'ynash", "sinab ko'rish", "tasavvur qilish", "gapirish", "taqqoslash" va "hayratlanish" shaklida kechadi. Shuning uchun interfaol usullar aynan shu tabiiy rivojlanish mexanizmlariga mos keladi. Masalan, pedagog bolalarga "Qor nima uchun eriydi?" degan savolning javobini tayyor holda aytib berishi mumkin. Biroq interfaol yondashuvda u avval muammoli vaziyat yaratadi: muz bo'lagi, iliq suv va quyosh tasviri yordamida bolalardan taxmin so'raydi. Kimdir "issiqdan eriydi", deydi, boshqasi "suvga tushsa yo'qoladi", deydi, yana biri "quyosh yesa kerak", deya bolalarcha faraz qiladi. Ana shu turli javoblar ustida suhbatlashish, kuzatish va kichik tajriba o'tkazish orqali bola tayyor bilimni eshitmaydi, balki unga o'zi intellektual harakat orqali yetib boradi.



1-rasm: Interfaol usullarning mohiyati

TAHLIL VA NATIJALAR

Interfaol usullarning mazmunini ochishda “bola faolligi” tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Chunki mazkur metodlarning samaradorligi, eng avvalo, bolaning tashqi va ichki faolligi bilan belgilanadi. Tashqi faollik – bolaning javob berishi, savol so‘rashi, predmetlar bilan ishlashi, guruh ishida qatnashishi, o‘yin rolini bajarishi kabi kuzatiladigan harakatlarda namoyon bo‘ladi. Ichki faollik esa uning taqqoslashi, taxmin qilishi, muqobil yo‘l izlashga urinishi, bog‘lanishlarni topishi va o‘zicha xulosa qilishi bilan ifodalanadi. Interfaol metod aynan mana shu ichki intellektual faollikni uyg‘otgani bilan qimmatlidir. Masalan, “Qaysi biri ortiqcha?” o‘yini oddiy ko‘rinishi mumkin, ammo unda bola predmetlarni tahlil qiladi, umumiy belgini ajratadi, farqni ko‘radi va tanlovini asoslashga harakat qiladi. Bu esa fikrlash operatsiyalarining tabiiy shakllanishiga xizmat qiladi. Interfaol usullarning yana bir muhim mazmuniy belgisi – muloqotga tayanganligidir. Muloqot bu yerda shunchaki suhbat emas, balki tafakkurning tashqi namoyon bo‘lish shakli sifatida qaraladi. Bola o‘z fikrini gap orqali ifodalagan sayin, u fikrni aniqlashtiradi, tartiblaydi va mantiqiyashtiradi. Shu sababli interfaol metodlarda ochiq savollar, suhbat, bahs elementlari, tinglash va javob qaytarish muhim o‘rin egallaydi. Masalan, ertak o‘qib bo‘lingach, pedagog: “Bo‘ri nega bunday yo‘l tutdi?” yoki “Senga qaysi qahramon yoqdi, nega?” deb so‘rsa, bola shunchaki matnni eslab qolmaydi; u sabab izlaydi, baho beradi va shaxsiy munosabat bildiradi. Aynan shu jarayonda fikr mustaqil tus oladi. Demak, interfaol usulda nutq shunchaki javob vositasi emas, balki tafakkurni rivojlantiruvchi asosiy psixologik mexanizmdir.


Hamkorlik interfaol usullarning mazmunini belgilovchi yana bir fundamental omildir. Hamkorlikdagi ta‘lim jarayonida bola boshqalarning fikri mavjudligini anglaydi, o‘z g‘oyasini solishtiradi, kelishadi yoki e‘tiroz bildiradi, biror muammoni birgalikda hal qilishga o‘rganadi. Bu, ayniqsa, maktabgacha yoshda ijtimoiy-intellektual rivojlantirish uchun muhimdir. Masalan, kichik guruhga “Qo‘g‘irchoq uchun uy qurish” topshirig‘i berilganda, bolalardan biri devor quradi, boshqasi tom qo‘yadi, yana biri bezatishni taklif qiladi. Jarayon davomida ular fikr almashadilar: “Bu yer baland bo‘lsin”, “Eshik shu tomonda bo‘lsin”, “Qo‘g‘irchoq kirishi uchun joy qoldiraylik”. Tashqi ko‘rinishda bu oddiy qurish o‘yini bo‘lib tuyuladi, ammo mazmunan u hamkorlik, rejalashtirish, kelishuvga erishish, muammo yechish va birgalikda qaror qabul qilishning interfaol modeli hisoblanadi. Bunday faoliyatda bolada nafaqat ijtimoiylashuv, balki mantiqiy va ijodiy fikrlash ham bir vaqtda rivojlanadi. Interfaol usullarning mazmuni mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish orqali yanada to‘liq namoyon bo‘ladi. Mustaqil fikrlash – bu tayyor namunani takrorlash emas, balki vaziyatga o‘z pozitsiyasidan yondashish, muqobil javob izlash va o‘z qarashini shakllantirish demakdir. Maktabgacha yoshda bunday sifatlar oddiy va hayotiy vaziyatlar orqali rivojlantiriladi. Masalan, pedagog: “Agar quyvon o‘rmonda yo‘lini yo‘qotib qo‘ysa, unga qanday yordam berish mumkin?” degan savolni bersa, bolalar turlicha yechim taklif qiladilar: “Uyiga olib boramiz”, “Qushlardan so‘raydi”, “Izidan qaytadi”,



“Daraxtga chiqib qaraydi”. Bu yerda bittagina “to’g’ri javob” mavjud emas. Muhimi, bola o’ylaydi, variant taklif qiladi, tasavvur qiladi va o’z fikrini himoya qiladi. Aynan shu holat interfaol metodning erkin fikrlashga olib boruvchi mazmuniy yadrosini tashkil etadi.

Tadqiqotimiz gipotezasida ham interfaol metodlar bolalarda muammoli vaziyatni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish va muloqotga kirishish kabi tafakkur operatsiyalarini faollashtirishi ta’kidlangan. Maktabgacha ta’lim amaliyotida interfaol usullar mazmunan ko’pincha o’yin faoliyati bilan uyg’unlashadi. Chunki o’yin bu yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati bo’lib, unda bola real hayot munosabatlarini modellashtiradi, rollarni sinab ko’radi, sabab–natija aloqalarini anglaydi va ijtimoiy tajriba orttiradi. Shu nuqtai nazardan, rolli o’yinlar, didaktik o’yinlar, muammoli vaziyatlar, “aqliy hujum”, “klaster”, “savol-javob”, dramatisatsiya, konstruktorli faoliyat kabi usullar maktabgacha ta’lim uchun ayniqsa mos hisoblanadi. Masalan, “Do’kon” o’yini davomida bola xaridor va sotuvchi rolini bajarib, nafaqat nutqiy faoliyatni, balki tanlov qilish, baholash, solishtirish, muloqot va qaror qabul qilish ko’nikmalarini ham namoyon etadi. “Aqliy hujum”ning soddashaklida esa pedagog: “Bir dona qalamdan yana nimalar uchun foydalanish mumkin?” deb so’raydi. Bolalar “yozish”, “rasm chizish”, “ko’rsatkich qilish”, “qo’g’irchoqqa tayoqcha qilish” kabi turli g’oyalarni aytadilar. Shu tariqa interfaol usul bolaning tasavvurini kengaytiradi, stereotip fikrlashdan chiqaradi va divergent tafakkurni rag’batlantiradi.

INTERFAOL USULLARNING TASNIFI



2-rasm: Interfaol usullarni tasnifi

Interfaol usullarni tasniflashda ularni shunchaki nomma-nom sanab o’tish yetarli emas. Ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan ular, avvalo, qanday tafakkur operatsiyasini faollashtirishi, bola faoliyatining qaysi shakliga tayanishi, muloqot va hamkorlikni qay darajada tashkil etishi hamda maktabgacha yoshning psixologik xususiyatlariga qanchalik mos kelishi bilan farqlanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim amaliyotida interfaol usullarni bir necha yirik guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq bo’ladi: g’oya-generativ usullar, vizual-strukturaviy usullar, dialogik-refleksiv usullar, o’yinli-simulyatsion usullar, muammoli-izlanish usullari, hamkorlikka asoslangan usullar hamda zamonaviy integrativ usullar. Bunday tasnif interfaol metodlarning qaysi biri erkin fikrlashni, qaysi biri nutqiy faollikni, qaysi biri esa hamkorlik va muammo yechishni kuchliroq rivojlantirishini aniq ko’rsatishga imkon beradi.

Zamonaviy ta’lim yondashuvlari ham bolalarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, agentlik va yangi vaziyatda yo’l topish kompetensiyalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Maktabgacha ta’limda interfaol usullar bolalarning yosh xususiyatlari, o’yin faoliyati, nutqiy rivoji va erkin fikrlash imkoniyatlariga mos holda tanlanadi. Bunday usullar bolaning tayyor bilimni passiv qabul qilishidan ko’ra, uni faol izlanish, savol berish, fikr bildirish va muammoni hal qilish jarayoniga jalb etadi. Jumladan, g’oya-generativ usullar, xususan, “aqliy hujum” bolalarda tezkor fikrlash, tasavvur va muqobil javob topish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, “Bir qalamdan yana qanday foydalanish mumkin?” kabi savollar bolani odatiy javobdan tashqariga chiqishga undaydi. Vizual-strukturaviy usullar esa rasmi klaster, BBB, kartochka va piktogrammalar orqali bolalarning fikrini tartibga soladi, mavzular o’rtasidagi bog’lanishlarni ko’rishga yordam beradi. Dialogik-refleksiv usullar savol-javob, suhbat va muhokama asosida tashkil etilib, bolaning o’z fikrini aytishi, uni asoslashi va qayta ko’rib chiqishiga sharoit yaratadi. Ayniqsa, “Nega?”, “Qanday?”, “Yana qanday bo’lishi mumkin?” kabi ochiq savollar erkin fikrlashni kuchaytiradi.

O’yinli-simulyatsion usullar – rolli o’yinlar, didaktik o’yinlar va dramatisatsiya orqali bola hayotiy vaziyatlarni modellashtiradi, muloqot qiladi va mustaqil qaror qabul qilishga o’rganadi. Muammoli-izlanish usullari esa kichik tajriba, kuzatish va muammoli vaziyatlar yordamida bolani sabab-oqibat bog’lanishlarini anglashga, taxmin qilishga va xulosa chiqarishga yo’naltiradi. Kichik guruhlarda ishlash ham interfaol ta’limning muhim shakli bo’lib, unda bolalar tinglash, kelishish, fikr almashish va birgalikda yechim topish ko’nikmalarini egallaydilar. Zamonaviy integrativ usullar, jumladan, mini-STEAM va konstruktiv faoliyat esa ijodiy fikrlash, amaliy tajriba

hamda muammo yechish malakalarini rivojlantiradi. Demak, maktabgacha ta'limda interfaol usullarni tanlashda ularning bolaning tabiiy faolligi, qiziqishi va fikrlash ehtiyojlariga mosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Eng samarali natija esa o'yin, savol-javob, muammoli vaziyat, rasmlar klaster, kichik guruhli ish va mini-STEAM topshiriqlarini uyg'un qo'llash orqali ta'minlanadi. Interfaol usullar maktabgacha ta'lim jarayonida mashg'ulotni qiziqarli tashkil etish bilan bog'lanmaydi, balki bolaning aqliy, nutqiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydigan muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular bolani tayyor javobni eslab qoluvchi emas, balki fikr yurituvchi, savol beruvchi, munosabat bildiruvchi va mustaqil xulosa chiqaruvchi faol subyektaga aylantiradi.

Avvalo, interfaol usullar bolada tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash kabi kognitiv jarayonlarni faollashtiradi. Masalan, "Qaysi biri ortiqcha?", "Nima uchun muz eriydi?", "Ertak qahramoni boshqacha yo'l tutishi mumkinmi?" kabi topshiriqlar bola tafakkurini harakatga keltiradi. Bu jarayonda asosiy natija faqat to'g'ri javob emas, balki bolaning javobga qanday fikriy yo'l bilan kelganidir.

1-jadval: **Interfaol usullarning funksional ahamiyati va erkin fikrlashga ta'siri**

Funksiya	Maktabgacha ta'limdagi mazmuni	Erkin fikrlashga ta'siri
Kognitiv-rivojlantiruvchi	Tahlil qilish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy jarayonlarni faollashtiradi.	Bola tayyor javobni emas, javobga olib boruvchi fikriy yo'lga egallaydi.
Erkin fikrni ifodalash	Savol-javob, suhbat va ochiq topshiriqlar orqali bola o'z fikrini aytadi.	Mustaqil pozitsiya shakllanadi, bola fikrini asoslashga o'rganadi.
Mustaqil xulosa chiqarish	Kuzatish, tajriba va muhokama orqali bola natijaga o'zi yetib boradi.	Sabab-oqibatni anglash va mustaqil tafakkur kuchayadi.
Muammo yechish	Muammoli vaziyatlar orqali bola turli yechimlarni izlaydi.	Muqobil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmasi rivojlanadi.
Ijodiy fikrlash	Aqliy hujum, drammatizatsiya va ochiq yakunli topshiriqlar qo'llanadi.	Noodatiy g'oya aytish, tasavvur qilish va yangicha yondashish rivojlanadi.
Nutqiy-kommunikativ	Rol o'yinlari, suhbat va guruhli fikr almashuvda nutq faollashadi.	Bola o'z fikrini og'zaki, mantiqli va erkin ifodalashga o'rganadi.
Hamkorlik va ijtimoiylashuv	Kichik guruhlarda ishlash, umumiy rasm yoki qurish vazifalari bajariladi.	Bola boshqalar fikrini eshitib, o'z qarashini boyitadi.
Motivatsion	O'yin, syurpriz vaziyat, tajriba va izlanish orqali qiziqish ortadi.	"Men ham topa olaman" degan ishonch va fikrlashga ichki rag'bat paydo bo'ladi.
Refleksiv	"Bugun nimani bilding?", "Senga nima qiziq bo'ldi?" kabi savollar beriladi.	Bola o'z fikri va faoliyatiga qayta nazar tashlashga o'rganadi.
Diagnostik-kuzatuv	Pedagog bolaning savolga yondashuvi, guruhdagi ishtiroki va yechimlarini kuzatadi.	Erkin fikrlash darajasini aniqlash va keyingi ishni individuallashtirishga yordam beradi.

Interfaol metodlarning yana bir muhim vazifasi bolaning erkin fikrini ifodalashga imkon yaratishdir. Savol-javob, suhbat, rolli o'yinlar va kichik guruhlardagi muhokamalar orqali bola o'z qarashini bildiradi, uni asoslaydi va boshqalar fikri bilan solishtiradi. Shu orqali nutq va tafakkur birgalikda rivojlanadi, bola o'z fikrini aniq va mustaqil ifodalashga o'rganadi. Bunday usullar mustaqil xulosa chiqarish va muammo yechish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Pedagog tayyor xulosani bermaydi, balki kuzatish, tajriba, savol yoki muammoli vaziyat orqali bolani natijaga o'zi yetib borishga yo'naltiradi. Masalan, "Urug' o'sishi uchun nima kerak?", "Qo'g'irchoqning uyi yiqildi, nima qilamiz?" kabi vaziyatlar bolani taxmin qilishga, yechim izlashga va qaror qabul qilishga undaydi. Interfaol usullar ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi. "Aqliy hujum", drammatizatsiya, rasmlar klaster, ochiq yakunli savollar va konstruktorli faoliyat bolalarda tasavvur, originallik hamda muqobil fikr bildirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, "Bir qalamdan yana qanday foydalanish mumkin?" kabi savol bola tafakkurini odatiy javob doirasidan chiqaradi.

Shuningdek, interfaol metodlar ijtimoiylashuv va hamkorlikni kuchaytiradi. Kichik guruhlarda ishlash, umumiy rasm yaratish, rolli o'yinlarda vazifalarni taqsimlash jarayonida bolalar tinglash, kelishish, navbat kutish va boshqalar fikrini hisobga olishni o'rganadilar. Bu esa bolani nafaqat individual fikrlovchi, balki ijtimoiy muloqotga kirisha oladigan shaxs sifatida rivojlantiradi. Interfaol usullarning yana bir ahamiyati shundaki, ular bolada qiziqish va ichki rag'batni oshiradi. O'yin, tajriba, syurpriz vaziyat va izlanish bola uchun tabiiy qiziqarli faoliyat bo'lib, unda "Men ham topa olaman", "Mening fikrim ham muhim" degan ishonchni shakllantiradi. Mashg'ulot yakunidagi oddiy refleksiv savollar – "Bugun nimani bilding?", "Senga nima qiziq bo'ldi?" – esa bolaning o'z faoliyatiga qayta nazar tashlashiga yordam beradi. Demak, interfaol usullarning funksional ahamiyati ularning



kognitiv, nutqiy, ijodiy, ijtimoiy, motivatsion va reflektiv rivojlanishni birgalikda ta'minlashida namoyon bo'ladi. Shu bois ular maktabgacha ta'limda erkin fikrlashni shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida baholanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, interfaol usullar maktabgacha ta'lim jarayonida bolani passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bunday metodlar orqali bola savol beradi, fikr bildiradi, muammoga yechim izlaydi, tengdoshlari bilan hamkorlik qiladi va mustaqil xulosa chiqarishga o'rganadi. Ayniqsa, rolli va didaktik o'yinlar, savol-javob, muammoli vaziyatlar, rasmi klaster, "aqliy hujum", kichik guruhlarda ishlash hamda mini-STEAM topshiriqlari erkin fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Demak, maktabgacha ta'limda interfaol usullarni maqsadli va yosh xususiyatlariga mos ravishda qo'llash bolaning aqliy, nutqiy, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan muhim pedagogik shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son. <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. 2019-yil 8-may, PQ-4312-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent, 2022.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
5. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
6. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2013.
7. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2019.
8. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
9. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999.
10. Bruner J.S. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960.
11. Osborn A.F. Applied Imagination: Principles and Procedures of Creative Problem-Solving. – New York: Charles Scribner's Sons, 1953.
12. Johnson D.W., Johnson R.T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. – Boston: Allyn & Bacon, 1999.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.